



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Shaishlamova Nargiza Kabilovna	Tijorat banklari risklarini baholashda stress-test usulidan samarali foydalaniish	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O'zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta'lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No'rbo'ta o'g'li	Kredit riski	60
9.	Kurbonov Saidd Akbarovich	AQSH federal rezerv tizimi (FRT) va uning iqtisodiyotga ta'siri	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O'zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Yusupov Bexzod Yusup ugli	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Tashbaeva Rano Gaybulloevna, Tashbaev Ulugbek Vansitovich	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Barakaev Otabek Otaqulovich	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Chorieva Nigina Qaxramanovna	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Kuzieva Dinora Bahodirovna	Uzoq muddatli aktivlarni baholash tartibini takomillashtirish	173
24.	Umarova Gulzodaxon Kodirbekovna	Kichik biznesni muqobil mo'ljalashtirishning ilg'or xorijiy tajribalari	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206





29	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-dagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317
44	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida mevachilik tarmog'ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo'llari	335
47	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun'iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50	Toshev Nurbek Janon o'g'li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko'rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo'llari	371
53	Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug'bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56	Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo'llari	395
57	Xamdamov Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58	Ruziyev G'anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari	411





59	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo'yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60	Mirzayeva Charos G'ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'rni: Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari	451
63	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тугган ўрни	459
64	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari	471
65	Xadjibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funktsiya va prinsiplari	477
66	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko'rsatkich asosida O'zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	501
69	Sulaymanov Akrom Isamiddinovich	O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibligi va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xasanova Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526
72	Xonova Nodira Fazliddinovna	Kraudfunding platformalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari	534
73	Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli	544
74	Umarov Abdurahob Tursunovich	Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari	550
75	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Xorijiy davlatlar qarzini boshqarishga doir tajribalari va milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	557
76	Bozorov Xayrulla Xaitboyevich	Farg'ona viloyatida biznesni rivojlantirishda jalb qilinayotgan investitsiyalarning ahamiyati	565
77	Умаров Баходир Султанович	Совершенствование налогового администрирования крупных предприятий реального сектора экономики	570
78	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini dalillarga asoslangan holda joriy etish va monitoring qilish modeli	579
79	Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	589
80	Хамдамов Сардор Фармон угли	Sanoat kompaniyalarining davlat xaridlarida narx shakllanishi va raqobat muhiti: lot darajasidagi ma'lumotlar tahlili	595
81	Nabixo'jayeva Dilafro'z Sobir qizi	O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida ayollar intellektual mehnatini boshqarish tizimini takomillashtirish	600
82	Zokirov Sardor To'liqin o'g'li	Raqamli platformalar orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish	607
83	Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Hududlar investitsion jozibadorligini oshirishda institutsional muhitning roli	612
84	Axmedova Nigora Djabbaraliyevna	Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatining nazariy asoslari	618
85	Davronov Doniyor Elmuratovich	Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalarini qo'llash	625





HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA INSTITUTSIONAL MUHITNING ROLI

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlar investitsion jozibadorligini oshirishda institutsional muhitning o'zini tadqiq etilgan. Institutsional muhitning huquqiy, tashkiliy, ma'muriy va boshqaruv jihatlari investorlarga yaratiladigan shart-sharoitlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Investorlar huquqlarining himoyasi, mulk daxlsizligi, davlat xizmatlarining shaffofligi, ma'muriy tartib-taomillarning soddaligi va raqamlashtirishning investitsiya qarorlariga ta'siri asoslangan. Shuningdek, hududlarda investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari institutsional barqarorlikni ta'minlash, investorlar ishonchini mustahkamlash va hududlarning investitsion raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy takliflarni shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: institutsional muhit, investitsion jozibadorlik, hudud, investor, investitsiya, huquqiy himoya, davlat boshqaruvi, raqamlashtirish, investitsion siyosat, raqobatbardoshlik.

РОЛЬ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ РЕГИОНОВ

Умаралиев Санжар Султаналиевич

*Независимый соискатель
Ташкентского государственного
экономического университета*

Аннотация. В статье исследуется роль институциональной среды в повышении инвестиционной привлекательности регионов. Правовые, организационные, административные и управленческие аспекты институциональной среды анализируются с позиции формирования благоприятных условий для инвесторов. Обосновано влияние защиты прав инвесторов, неприкосновенности собственности, прозрачности государственных услуг, упрощения административных процедур и цифровизации на принятие инвестиционных решений. Также рассмотрены направления совершенствования институциональных механизмов поддержки инвестиционных проектов в регионах. Результаты исследования позволяют сформировать практические предложения по обеспечению институциональной стабильности, укреплению доверия инвесторов и повышению инвестиционной конкурентоспособности регионов.

Ключевые слова: институциональная среда, инвестиционная привлекательность, регион, инвестор, инвестиции, правовая защита, государственное управление, цифровизация, инвестиционная политика, конкурентоспособность.

THE ROLE OF THE INSTITUTIONAL ENVIRONMENT IN ENHANCING REGIONAL INVESTMENT ATTRACTIVENESS

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich

*Independent Researcher at
Tashkent State
University of Economics*

Abstract. This article examines the role of the institutional environment in enhancing the investment attractiveness of regions. The legal, organizational, administrative, and managerial





aspects of the institutional environment are analyzed from the perspective of creating favorable conditions for investors. The study substantiates the impact of investor rights protection, property security, transparency of public services, simplification of administrative procedures, and digitalization on investment decision-making. It also considers directions for improving institutional mechanisms to support investment projects in regions. The findings provide a basis for developing practical recommendations aimed at ensuring institutional stability, strengthening investor confidence, and enhancing the investment competitiveness of regions.

Keywords: institutional environment, investment attractiveness, region, investor, investment, legal protection, public administration, digitalization, investment policy, competitiveness.

Kirish.

Bugungi iqtisodiy sharoitda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda institutsional muhitning sifati muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Investorning muayyan hududni tanlash to'g'risidagi qarori nafaqat bozor sig'imi, resurslar mavjudligi yoki ishlab chiqarish xarajatlari, balki mulk huquqining himoyalanganligi, huquqiy tartiblarning barqarorligi, davlat boshqaruvi samaradorligi va biznes yuritish shartlarining prognoz qilinishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli hududlarning investitsion salohiyatini real investitsiya oqimlariga aylantirishda institutsional omillarning o'rnini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Institutsional muhitning investitsion jozibadorlikka ta'siri, avvalo, investor uchun noaniqlik va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish bilan bog'liq. Ruxsat berish jarayonlarining soddaligi, davlat xizmatlarining ochiqligi va raqamlashtirilganligi, yer va mulk munosabatlarining aniq tartibga solinganligi, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi hamda investor manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarining mavjudligi hududda investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Aksincha, ma'muriy to'siqlar, tartib-taomillarning murakkabligi va institutsional noaniqlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish xarajatlarini oshirib, kapital oqimining boshqa hududlarga yo'nalishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, hududlar investitsion jozibadorligini oshirishda institutsional muhitni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, uning asosiy tarkibiy elementlarini tizimlashtirish va investorlar uchun qulay biznes sharoitlarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada institutsional omillarning hududiy investitsiya jarayonlariga ta'siri hamda ularni takomillashtirish imkoniyatlari yoritiladi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantirish va oshirishda institutsional muhit muhim omillardan biri hisoblanadi. Institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi tadbirkorlik faoliyatining qulayligi, investorlarning bozorga kirish imkoniyatlari, mulk huquqining himoyalanganligi, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun mavjud tashkiliy sharoitlar orqali namoyon bo'ladi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining investitsion jarayonlardagi faolligi hudud iqtisodiyotining institutsional salohiyatini baholashda muhim indikator sifatida qaraladi. Shu bilan birga, kichik sanoat zonalari va maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyati investorlar uchun yaratilgan maxsus tashkiliy, moliyaviy va infratuzilmaviy sharoitlarning amaliy natijasini ifodalaydi.

Tahlil va natijalar.

Mazkur jadvalda 2018–2025-yillar davomida kichik biznes investitsiyalari, ularning jami investitsiyalardagi ulushi, kichik sanoat zonalari hamda maxsus iqtisodiy zonalarga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi aks ettirilgan. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali institutsional islohotlarning investitsion faollikka ta'sirini, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini va hududlarda investorlar uchun yaratilayotgan maxsus iqtisodiy sharoitlarning samaradorligini





baholash mumkin. Mazkur indikatorlar, shuningdek, hududlar investitsion jozibadorligini kompleks baholash metodologiyasini shakllantirish uchun statistik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

Hududlar investitsion jozibadorligini oshirishda institutsional muhitning asosiy indikatorlari dinamikasi⁷⁴

Yil	Kichik biznes investitsiyalari, mlrd so‘m	Kichik biznes investitsiyalarining jami investitsiyalardagi ulushi, %	Kichik sanoat zonalari investitsiyalari, mlrd so‘m	Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiyalari, mlrd so‘m
2018	47 225,2	38,0	245,8	1 507,6
2019	86 886,8	44,3	414,9	3 313,1
2020	96 629,2	46,0	304,7	3 971,6
2021	109 202,2	45,6	219,3	3 319,9
2022	127 640,6	47,9	1 663,6	3 735,0
2023	176 630,5	49,6	1 038,6	6 269,6
2024	265 685,8	52,4	2 139,7	16 511,5
2025	362 910,0	61,4	1 325,6	15 490,1

Jadval ma’lumotlari 2018–2025-yillarda O‘zbekistonda institutsional muhitni tavsiflovchi asosiy investitsion indikatorlarda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Eng avvalo, kichik biznes investitsiyalari hajmi 2018-yildagi 47 225,2 mlrd so‘mdan 2025-yilda 362 910,0 mlrd so‘mgacha oshgan. Ya’ni, mazkur davrda ushbu ko‘rsatkich qariyb 7,7 baravar ko‘paygan. Bu holat kichik biznes subyektlarining investitsion faolligi kuchaygani va xususiy sektor uchun investitsiya imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi.

Kichik biznes investitsiyalarining jami investitsiyalardagi ulushi ham barqaror ravishda oshgan. 2018-yilda ushbu ko‘rsatkich 38,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 61,4 foizga yetgan. Demak, sakkiz yil davomida kichik biznesning jami investitsiyalardagi ulushi 23,4 foiz punktga oshgan. Ayniqsa, 2023–2025-yillarda o‘shir sur‘atining tezlashgani kichik biznesning hududiy investitsion jarayonlardagi roli sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatadi.

Kichik sanoat zonalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar dinamikasi esa nisbatan o‘zgaruvchan xarakterga ega. 2018-yildagi 245,8 mlrd so‘mlik ko‘rsatkich 2019-yilda 414,9 mlrd so‘mga oshgan, 2020–2021-yillarda esa pasaygan. 2022-yilda investitsiyalar hajmi keskin ko‘payib, 1 663,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. 2024-yilda esa eng yuqori ko‘rsatkich — 2 139,7 mlrd so‘m qayd etilgan. 2025-yilda 1 325,6 mlrd so‘mgacha pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan qariyb 5,4 baravar yuqori.

Maxsus iqtisodiy zonalarga investitsiyalar ham uzoq muddatli istiqbolda sezilarli darajada oshgan. 2018-yildagi 1 507,6 mlrd so‘mlik investitsiyalar 2024-yilda 16 511,5 mlrd so‘mga yetib, qariyb 11 baravar ko‘paygan. 2025-yilda esa 15 490,1 mlrd so‘mni tashkil etgan. Umuman, ushbu ko‘rsatkichlar maxsus iqtisodiy zonalar hududlarda investorlarga soliq, bojxona, infratuzilma va tashkiliy jihatdan qulay sharoit yaratishda muhim mexanizmga aylanganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, jadvaldagi tendensiyalar institutsional muhitning takomillashuvi, xususiy sektor faolligining ortishi hamda maxsus iqtisodiy hududlardan foydalanish investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim omillari ekanligini ko‘rsatadi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini shakllantirishda institutsional muhitning sifati xorijiy kapital oqimining hajmi va barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir. Investorlar tomonidan hudud tanlash jarayonida nafaqat mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslar, balki biznes yuritish sharoitlari, huquqiy kafolatlar, ma’muriy tartib-taomillarning soddaligi, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalar hamda investitsiya

⁷⁴ <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





loyihalarini amalga oshirishning institutsional mexanizmlari ham hisobga olinadi. Shu sababli xorijiy investitsiyalar hajmi va xorijiy kapital ishtirokidagi yangi korxonalar sonining o'zgarishi hududlarda investitsion muhitning amaliy natijalarini ifodalovchi muhim indikatorlar sifatida namoyon bo'ladi.

2018–2025-yillar dinamikasini tahlil qilish O'zbekistonda investitsion institutlarning rivojlanishi va investorlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarning takomillashuvi bilan xorijiy kapital oqimi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining o'sishi hamda xorijiy investitsiya ishtirokidagi yangi korxonalar sonining ko'payishi mamlakat hududlarining xalqaro investorlar uchun jozibadorligi ortib borayotganini baholash imkonini beradi. Mazkur ko'rsatkichlar hududiy investitsion jozibadorlik Jadval ma'lumotlari 2018–2025-yillarda O'zbekistonda institutsional muhitning takomillashuvi fonida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish koni kompleks baholashda institutsional omillarning o'rnini aniqlash uchun muhim statistik asos bo'lib xizmat qiladi.

2-jadval

Institutsional muhit rivojlanishining hududlar investitsion jozibadorligiga ta'sirini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi⁷⁵

Yil	Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm	Xorijiy investitsiya va kreditlarning o'sishi, %	Xorijiy investitsiya ishtirokidagi yangi korxonalar soni, dona
2018	30 154,8	—	1 206
2019	85 437,2	283,3	2 577
2020	89 758,8	105,1	2 743
2021	101 371,2	112,9	3 353
2022	113 864,3	112,3	4 019
2023	201 692,1	177,1	6 084
2024	351 846,5	174,4	8 273
2025	433 881,8	123,3	9 840

Jadval ma'lumotlari 2018–2025-yillarda O'zbekistonda institutsional muhitning takomillashuvi fonida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy dinamika shakllanganini ko'rsatadi. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 2018-yildagi 30 154,8 mlrd so'mdan 2025-yilda 433 881,8 mlrd so'mgacha oshgan. Natijada sakkiz yillik davrda mazkur ko'rsatkich qariyb 14,4 baravar ko'paygan. Bu o'sish xorijiy kapital uchun investitsiya muhitining jozibadorligi sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatuvchi muhim dalildir.

Ayniqsa, 2019-yilda xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining o'sishi 283,3 foizni tashkil etgani e'tiborga loyiq. 2020–2022-yillarda o'sish sur'atlari nisbatan barqarorlashib, mos ravishda 105,1; 112,9 va 112,3 foizni tashkil etgan. 2023-yilda esa xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 177,1 foizga o'sib, 201 692,1 mlrd so'mga yetgan. 2024-yilda ham yuqori o'sish sur'ati — 174,4 foiz qayd etilib, investitsiyalar hajmi 351 846,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2025-yilda o'sish sur'ati 123,3 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, xorijiy investitsiyalar hajmi 433 881,8 mlrd so'mga yetgan.

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi yangi korxonalar sonining dinamikasi ham ijobiy tendensiyaning namoyon etadi. 2018-yilda bunday korxonalar soni 1 206 ta bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 9 840 taga yetgan. Demak, mazkur ko'rsatkich qariyb 8,2 baravar oshgan. Ayniqsa, 2022-yildan keyingi davrda yangi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar sonining tez sur'atlarda ko'payishi investitsiya faoliyatining institutsional bazasi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Umuman, xorijiy investitsiyalar hajmi va xorijiy kapital ishtirokidagi yangi korxonalar sonining bir vaqtda o'sishi institutsional muhitdagi ijobiy o'zgarishlarning investitsion faollik bilan uzviy bog'liqligini anglatadi. Mazkur tendensiya hududlarda investorlar huquqlarini himoya

⁷⁵ <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





qilish, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va maxsus iqtisodiy mexanizmlarni kengaytirish bo'yicha siyosatni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi

Xulosa.

Tadqiqot natijalari hududlar investitsion jozibadorligini oshirishda institutsional muhitning sifati investitsiya faoliyatining barqarorligi va hududning kapital uchun raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Institutsional shart-sharoitlarning investor uchun qulayligi mavjud iqtisodiy va resurs salohiyatining investitsiya oqimlariga aylanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli hududiy investitsiya siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiy rag'batlar bilan bir qatorda institutsional muhitni yaxshilash choralariga ham ustuvor ahamiyat berish zarur.

Hududlarning institutsional muhitini takomillashtirish, avvalo, investorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, mulk huquqi kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va davlat xizmatlarining shaffofligini ta'minlash bilan bog'liq. Ayniqsa, investitsiya loyihalarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida investor bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni raqamli platformalar orqali tashkil etish ortiqcha vaqt va tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Bunday yondashuv hududning investitsion muhitini baholashda investor uchun muhim bo'lgan amaliy shart-sharoitlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, hududlarda investorlar bilan ishlashning loyiha sikliga asoslangan tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda investitsiya loyihasini izlash va tanlashdan boshlab, yer ajratish, infratuzilmaga ulanish, moliyalashtirish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va keyingi faoliyatni kengaytirishgacha bo'lgan jarayonlarda institutsional qo'llab-quvvatlashning uzluksizligi ta'minlanishi lozim. Hududiy boshqaruv organlari faoliyatini investitsiya loyihalarining natijadorligi bilan bog'lash esa institutsional mexanizmlarning amaliy samaradorligini oshiradi.

Umuman, institutsional muhitni takomillashtirish hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishning mustaqil yo'nalishi sifatida emas, balki infratuzilmaviy, moliyaviy va iqtisodiy mexanizmlar bilan uzviy bog'langan holda amalga oshirilishi lozim. Barqaror va prognoz qilinadigan institutsional muhit investorlar ishonchini mustahkamlab, uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish hamda hududlarning investitsion raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. — Toshkent: Moliya, 2010.
2. Qosimova M.S., Ergashxo'jayeva Sh.J. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2011.
3. Rajabov N. Investitsion muhit jozibadorligini baholashning ilmiy-uslubiy jihatlari. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil.
4. Imomov X.X. Investitsion muhitni yaxshilash va uni jozibadorligini oshirishni moliyaviy asoslari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. ol. uch. taq. et. diss. Avtoref. — T.: "TDIU", 2011. — B. 8.
5. Tuxliev B.K. Investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — T.: "TDIU", 2017. — B. 19.
6. Басенко А.М., Таранов П.В. Особые экономические зоны как институциональный инструмент мобилизации инвестиционно-финансового потенциала территориального развития // Финансовые исследования. 2016. №1 (50).
7. Mamatov B. Qulay investitsiya muhiti — iqtisodiyot taraqqiyotining garovi. <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-economy-uz/1391-ulaj-investitsiya-mu-iti-i-tisodijot-tara-ijotining-garovi>





8. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2003. – B. 29.

9. G'ozibekov D.G', Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 92 b.

10. Зенченко С. В., Шемёткина М. А. «Инвестиционный потенциал региона». Сборник научных трудов СевкавГТУ. Серия «Экономика». 2007. №6.

11. Stobaugh R.B. How to Analyze Foreign Investment Climates // Harvard Business Review. 1969. September-October.

